



Nilufarxon YULDASHEVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsent v.b., PhD
E-mail: nilukhanscience@mail.ru

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti., psixol.f.n Z.E.Abdurahmanova taqrizi asosida

EMPIRICAL STUDY OF DIFFERENCES IN IMPOSTER SYNDROME BY PROFESSIONAL STATUS

Annotation

In this study, the differences in the level of imposter syndrome among students of various specialties were empirically examined. A total of 830 respondents (N=830) participated in the research. The results showed significant differences in imposter syndrome indicators across specialties ($H=16.80$; $p<0.01$). The highest levels were recorded in Mathematics and Computer Science (751.23), Artificial Intelligence (744.97), and Mechanical Engineering (738.04), while the lowest indicator was observed in Economics (597.52). These findings indicate that the manifestation of imposter syndrome is closely related to the field of study and career choice.

Key words: professional status, imposter syndrome, artificial intelligence, xorijiy til, students.

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ РАЗЛИЧИЙ СИНДРОМА САМОЗВАНЦА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАТУСА

Аннотация

В данном исследовании эмпирически изучались различия в уровне синдрома самозванца среди студентов различных специальностей. В исследовании приняли участие всего 830 респондентов (N=830). Полученные результаты показали значительные различия в показателях синдрома самозванца между специальностями ($H=16,80$; $p<0,01$). Наиболее высокие уровни были зафиксированы у студентов по направлениям математика и информатика (751,23), искусственный интеллект (744,97) и механика (738,04), тогда как самый низкий показатель наблюдался у студентов специальности экономика (597,52). Эти результаты показывают, что проявление синдрома самозванца тесно связано с учебным направлением и профессиональным выбором.

Ключевые слова: профессиональный статус, синдром самозванца, искусственный интеллект, иностранный язык, студенты.

IMPOSTER SYNDROMING PROFESSIONAL SOHAGA KO'RA TAFOVUTLARINING EMPIRIK O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda turli mutaxassislik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar orasida imposter sindromi darajasidagi tafovutlar empirik jihatdan o'rganildi. Jami 830 nafar respondent (N=830) tadqiqotda ishtirok etdi. Olingan natijalar imposter sindromi ko'rsatkichlari bo'yicha mutaxassisliklar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi ($H=16,80$; $p<0.01$). Eng yuqori daraja MMT, BT (751,23), sun'iy intellekt (744,97) va mexanika (738,04) yo'nalishlarida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich iqtisodiyot (597,52) mutaxassisligida kuzatildi. Ushbu natijalar imposter sindromining namoyon bo'lishi o'qish yo'nalishi va kasbiy tanlov bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: imposter sindromi, professional soha, sun'iy intellekt, xorijiy til, talabalar.

Kirish. Imposter sindromi bugungi kunda psixologiya va ta'lim sohalarida eng ko'p muhokama qilinayotgan masalalardan biridir. Ushbu sindrom shaxsning o'z yutuqlarini inkor etishi, o'zini yetarlicha malakali deb bilmasligi va boshqalarning bahosiga nisbatan ortiqcha sezgirlik bilan tavsiflanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, imposter sindromi nafaqat shaxsiy psixologik farovonlikka, balki o'quv va kasbiy samaradorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [4].

So'nggi yillarda olib borilgan izlanishlarda imposter sindromining paydo bo'lishi shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy tarbiya omillari, o'zini baholash jarayonlari va atrofdagilarning kutilmalari bilan bog'liq ekani aniqlangan. Shuningdek, turli akademik muhitda ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida bu sindromning namoyon bo'lish darajasi bir xil emasligi qayd etiladi. Masalan, texnika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi talabalar ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagilarga nisbatan ko'proq imposter sindromi alomatlarini boshdan kechirishlari mumkinligi kuzatilgan [5].

Kasbiy tanlov shaxsning motivatsiyasi, o'z-o'zini qadrlash darajasi hamda kelajakdagi faoliyatga bo'lgan ishonchini shakllantiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mutaxassislik bo'yicha imposter sindromi tafovutlarini aniqlash shaxsning ichki resurslarini qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning akademik samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, 830 nafar turli sohalarida faoliyat olib boradigan mutaxassislar ishtirokida imposter sindromining turli mutaxassisliklar kesimidagi darajalari o'rganildi va sezilarli tafovutlar aniqlanib, statistik asosda tahlil qilindi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imposter sindromi fenomeni ilk bor Klans va Aym [1] tomonidan tasvirlangan bo'lib, u shaxsning o'z yutuqlarini qadrlay olmasligi, muvaffaqiyatlarni ichki resurslari bilan bog'lay olmasligi va o'zini "soxta" deb his etishi bilan izohlanadi. Keyingi

tadqiqotlarda ushbu sindromning ta'lim, ilmiy faoliyat va kasbiy rivojlanishda keng tarqalganligi aniqlangan [7].

So'nggi yillarda o'tkazilgan izlanishlarda imposter sindromi nafaqat talabalarda, balki turli sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar orasida ham uchrashi qayd etilgan. Masalan, tibbiyot xodimlari, psixologlar va pedagoglar orasida olib borilgan tadqiqotlarda yuqori darajadagi imposter sindromi ularning kasbiy ishonchligiga, stress darajasiga va ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [1]. Shu bilan birga, muhandislik, IT va texnologiya sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar orasida ham o'zini yetarli darajada malakali his qilmaslik va "soxta" shaxs sifatida qabul qilish holatlari keng tarqalgan [6].

Adabiyotlarda qayd etilishicha, imposter sindromining darajasi mutaxassislik yo'nalishiga qarab sezilarli farq qiladi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasi vakillari ko'proq ijtimoiy bahoga sezuvchanlik va o'zini past baholash bilan ajralib tursa, texnik va tabiiy fanlar sohasi mutaxassislari o'z kasbiy kompetensiyalarini shubha ostiga olish va o'zini professional darajada namoyon qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar [5].

Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda imposter sindromi jinsiy tafovutlar bilan ham bog'liq ekanini qayd etilgan. Ayrim manbalarda ayollar bu sindromni erkaklarga nisbatan ko'proq boshdan kechirishi ta'kidlangan bo'lsa-da, boshqa izlanishlarda farq sezilarli darajada emasligi aniqlangan [3].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda imposter sindromi turli kasbiy yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi shaxslarning psixologik farovonligi, o'z-o'zini baholash jarayoni va kasbiy motivatsiyasiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida keng yoritilgan. Shu sababli, mutaxassislik bo'yicha tafovutlarni empirik jihatdan o'rganish ushbu sindromni chuqurroq tushunish va uni kamaytirishga qaratilgan psixologik hamda tashkiliy strategiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda jami 830 nafar turli sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar 1-jadval

"Imposter sindromi testi" metodikasining mutaxassislik ko'ra tafovutlari (N=830)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang							Statistik qiymat	
	Filologiya (N=126)	Iqtisodiyot (N=128)	MMT, BT (N=284)	Mexanika (N=104)	Psixologiya (N=328)	Sun'iy intellekt (N=132)	Xorijiy til (N=319)	H	p
Imposter sindromi	731,47	597,52	751,23	738,04	675,12	744,97	715,98	16,80	0,000

Izoh: ** - p<0.01

Aksincha, iqtisodiyot (597,52) va psixologiya (675,12) sohalarida imposter sindromi nisbatan past darajada kuzatildi. Bu mutaxassislik vakillarida o'z kasbiy kompetensiyalariga nisbatan ishonch darajasi yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, xorijiy til (715,98) va filologiya (731,47) sohalarida o'rtacha yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi mutaxassislar ham ijtimoiy bahoga sezgirlik va o'zini qadrlashdagi nomutanosiblikni boshdan kechirishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar imposter sindromining mutaxassislikka ko'ra sezilarli tafovutlarga ega ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, texnologik yo'nalishlarda bu sindromning kuchliroq namoyon bo'lishi shaxsning kasbiy tayyorgarligi, yuqori raqobatbardoshlik muhiti va o'zini professional jihatdan isbotlash zarurati bilan izohlanishi mumkin.

- **Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, imposter sindromi turli mutaxassisliklar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi ($H = 16,80$; $p = 0,000$). Eng yuqori ko'rsatkichlar texnika va yuqori texnologiyalar bilan bog'liq sohalarida — MMT, BT, sun'iy intellekt va mexanika mutaxassislarida qayd etildi. Ushbu natija ilmiy adabiyotlarda ta'kidlangan g'oyalar bilan uyg'unlikda. Masalan, Vergauwe

ishtirok etdi. Ishtirokchilar turli yosh, jins va kasbiy yo'nalish vakillaridan iborat bo'lib, ular tadqiqotda ixtiyoriy ravishda qatnashdilar.

Tadqiqotda asosiy psixodiagnostik vosita sifatida S.Klans tomonidan ishlab chiqilgan "Imposter sindromi testi" dan foydalanildi. Ushbu test shaxsning o'z yutuqlarini qay darajada qadrlashi, muvaffaqiyatlarini ichki resurslari bilan bog'lay olishi yoki o'zini "soxta" deb his qilishi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashga xizmat qiladi. Test 20 ta savoldan iborat bo'lib, Likert tipidagi javob variantlariga asoslangan. Ballar yig'indisi imposter sindromining darajasini belgilash imkonini beradi: past, o'rtacha yoki yuqori darajadagi imposterlik hissi.

So'rovnomaga ishtirokchilarga onlayn va bosma shaklda taqdim etildi, anonimlik va maxfiylik tamoyillari ta'minlandi. Olingan ma'lumotlar SPSS 26.0 statistik dasturi yordamida qayta ishlanib, deskriptiv ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymat, standart og'ish) hamda guruhlararo tafovutlarni aniqlash uchun Kruskal–Wallis H testi qo'llanildi. Ushbu yondashuv mutaxassisliklar kesimida imposter sindromi darajalarining sezilarli farqlarini aniqlash imkonini berdi.

- **Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari turli mutaxassisliklar bo'yicha imposter sindromi ko'rsatkichlari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Kruskal–Wallis H testi asosida o'tkazilgan tahlil natijasida $H = 16,80$; $p = 0,000$ ($p < 0,01$) qiymati olindi. Bu esa mutaxassisliklar kesimida imposter sindromi darajalari bir xil emasligini tasdiqlaydi.

O'rtacha ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori imposter sindromi darajasi MMT va BT (751,23), sun'iy intellekt (744,97) hamda mexanika (738,04) sohalarida qayd etildi. Ushbu natijalar texnik va yuqori texnologiyalarga asoslangan yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'z bilim va ko'nikmalarini yetarli darajada qadrlamaslik, o'zini "soxta" deb his qilish hissiyotini ko'proq boshdan kechirayotganini anglatadi.

va hamkorlari (2015) texnik va muhandislik yo'nalishidagi mutaxassislar yuqori malaka talab qiluvchi murakkab muhitda ishlaganlari sababli o'z bilim va ko'nikmalarini shubha ostiga olishga moyil bo'lishlarini ta'kidlagan. Shuningdek, yuqori raqobatbardoshlik va innovatsion jarayonlarga tez moslashish zarurati bu yo'nalishlarda imposter sindromini kuchaytirishi mumkin.

Nisbatan past ko'rsatkichlar iqtisodiyot va psixologiya yo'nalishlarida kuzatildi. Buni ushbu sohalarida nazariy bilimlarning amaliyot bilan tezroq uyg'unlashuvi, shuningdek, shaxsiy kompetensiyalarga bo'lgan ishonchning nisbatan yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Psixologiya sohasi vakillarida kasbiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, refleksiya va shaxsiy resurslarni boshqarish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas, bu esa imposter sindromini nisbatan kamaytiradi (Neureiter & Traut-Mattausch, 2016).

Filologiya va xorijiy til sohalarida o'rtacha yuqori darajadagi imposter sindromi qayd etilgan bo'lib, bu natija ham adabiyotlarda qayd etilgan ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Xorijiy til va filologiya mutaxassislarida ijtimoiy bahoga sezgirlik, o'z fikrini aniq va mukammal ifodalash zarurati

kuchli bo'lgani sababli, ular ko'proq tashqi baholashdan xavotirlanishlari mumkin. Bu esa imposter sindromi namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi.

Ushbu tadqiqot natijalari imposter sindromining mutaxassislik bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Natijalar Clance va Imes (1978) tomonidan ta'kidlangan nazariy asoslarni ham tasdiqlaydi: ya'ni imposter sindromi

shaxsning o'zini baholashdagi nomutanosiblik va tashqi bahoga ortiqcha sezgirlik bilan bog'liq bo'lib, kasbiy kontekstga qarab turlicha darajada namoyon bo'ladi. Shu boisdan, ushbu sindromni kamaytirishga qaratilgan psixologik yordam dasturlari ishlab chiqishda mutaxassislik xususiyatlarini ham inobatga olish muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Bravata, D. M., Watts, S. A., Keefer, A. L., Madhusudhan, D. K., Taylor, K. T., Clark, D. M., Nelson, R. S., Cokley, K. O., & Hagg, H. K. (2020). Prevalence, predictors, and treatment of impostor syndrome: A systematic review. *Journal of General Internal Medicine*, 35(4), 1252–1275. <https://doi.org/10.1007/s11606-019-05364-1>
2. Clance, P. R., & Imes, S. A. (1978). The imposter phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, Research & Practice*, 15(3), 241–247. <https://doi.org/10.1037/h0086006>
3. Neureiter, M., & Traut-Mattausch, E. (2016). Inspecting the dangers of feeling like a fake: An empirical investigation of the impostor phenomenon in the world of work. *Frontiers in Psychology*, 7, 1445. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2016.01445>
4. Parkman, A. (2016). The imposter phenomenon in higher education: Incidence and impact. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 16(1), 51–60.
5. Sakulku, J., & Alexander, J. (2011). The impostor phenomenon. *International Journal of Behavioral Science*, 6(1), 73–92.
6. Vergauwe, J., Wille, B., Feys, M., De Fruyt, F., & Anseel, F. (2015). Fear of being exposed: The trait-relatedness of the impostor phenomenon and its relevance in the work context. *Journal of Business and Psychology*, 30(3), 565–581. <https://doi.org/10.1007/s10869-014-9382-5>
7. McGregor, L. N., Gee, D. E., & Posey, K. E. (2008). I feel like a fraud and it depresses me: The relation between the impostor phenomenon and depression. *Social Behavior and Personality: An International Journal*, 36(1), 43–48. <https://doi.org/10.2224/sbp.2008.36.1.43>